

O'zbekiston va Jahon banki yangi mamlakat dasturi doirasida strategik hamkorlikni kengaytirmoqda

TOSHKENT, 2022-yil 2-oktabr – Markaziy Osiyo mamlakatlariga bo‘lgan amaliy tashrifi doirasida [Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha vitse-prezidenti Anna Byerde](#) 29-sentabr – 2-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Byerde xonim Prezident Mirziyoyev va hukumatning yuqori mansabdor shaxslari bilan muzokaralar o‘tkazdi. Shuningdek, Anna Byerde bank tomonidan moliyalashtirilayotgan qishloq infratuzilmasi loyihasingin benefitsiarlari bilan uchrashdi.

Toshkentda Byerde xonim Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan sentabr oyida nishonlangan O‘zbekistonning Jahon banki bilan hamkorligining 30 yillik yakunlarini muhokama qildi. Tomonlar Jahon banki 2017 yildan boshlab keng ko‘lamli islohotlar dasturini amalga oshirish nuqtai nazaridan hukumatga moliyaviy va maslahat yordamini sezilarli darajada oshirganligini ta’kidladilar. Bir qator ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda strategik ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Byerde xonim, shuningdek, O‘zbekiston hukumatining yuqori martabali vakillari, jumladan, Bosh vazir o‘rinbosari – Iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni qisqartirish vaziri Jamshid Qo‘chqorov, Bosh vazir o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Jamshid Xo‘jaev, Moliya vaziri Timur Ishmetov, Markaziy bank boshqaruvi raisi Mamarizo Nurmuratov va Strategik islohotlar agentligi bosh direktori Shuhrat Vafayev bilan muzokaralar o‘tkazdi.

Rasmiylar bilan uchrashuvlar doirasida yangi qabul qilingan kelgusi besh yilga mo‘ljallangan [Mamlakat bilan hamkorlik dasturini \(MHD\)](#) amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Dasturni amalga oshirish jarayonida Jahon banki hukumatga yangi ish o‘rinlari yaratish va qashshoqlikni kamaytirish, inson kapitalini rivojlantirish, "yashil" va barqaror iqtisodiyotni barpo etish, gender tengsizligini bartaraf etish va fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida kengroq ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish maqsadida xususiy sektorni rivojlantirishga ko‘maklashadi. MHD doirasidagi asosiy faoliyat yo‘nalishlari 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy maqsad va vazifalarga mos keladi.

Byerde xonim va milliy hamkorlar islohotlarni, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun Jahon bankining moliyaviy va maslahat ko‘magini muhokama qildilar. Ushbu islohotlarga davlat korxonalari va banklarini xususiylashtirish, qishloq xo‘jaligi, energetika, moliya tizimi va boshqa strategik tarmoqlarni modernizatsiya qilish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xizmatlarini takomillashtirish, transport aloqalarini rivojlantirish, qishloq va shahar infratuzilmasini yaxshilash, ayollar uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, biznes va investitsiya muhitini yaxshilash kiradi. Shuningdek, Jahon banki tomonidan hozirda O‘zbekiston uchun tayyorlanayotgan [“Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti to‘g‘risida”gi hisobotning](#) bo‘ljak nashri bo‘yicha ham fikr almashildi.

"Davom etayotgan global notinchlik va inqirozlarga qaramay, fuqarolar farovonligini oshirish maqsadida inklyuziv va barqaror bozor iqtisodiyotini barpo etish bo‘yicha islohotlar O‘zbekiston hukumatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Biz rasmiylarning bu boradagi izchil sa‘y – harakatlarini olqishlaymiz", - dedi Anna Byerde. "Bu yil biz mamlakat bilan hamkorligimizning 30 yilligini

nishonlamoqdamiz. Kelgusi yillarda Jahon banki mamlakat bilan yangi hamkorlik dasturi asosidagi ustuvor islohotlar va loyihalarni amalga oshirishda hukumatni qo‘llab-quvvatlashda davom etadi. U ushbu maqsadlar uchun zarur bo‘lgan aniq moliyaviy va maslahat yordamini taqdim etadi.”

Byerde xonim O‘zbekistonga bo‘lgan tashrifi davomida Jizzax viloyatining Saroy qishlog‘ida ham bo‘ldi. Bu yerda u mahalliy aholi, o‘quvchilar, ularning ota-onalari va maktab o‘qituvchilari bilan uchrashdi. Saroy - [qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi](#) bilan qamrab olingan mamlakatning beshta viloyatidagi (Andijon, Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo va Jizzax) 306 ta chekka qishloqlardan biri hisoblanadi. Loyiha mamlakat hukumati tomonidan Jahon banki va Osiyo infratuzilmasi investitsiya bankining moliyaviy ko‘magida amalga oshirilmoqda.

Loyihani amalga oshirishda mahalliy aholi ham bevosita ishtirok etadi. Ular o‘z aholi punktlarida qaysi infratuzilma ob‘ektlariga ko‘proq talab borligini mustaqil ravishda aniqlab, ularni modernizatsiya qilish yoki noldan qurish kerakligini bildiradilar. 175 dan ortiq qishloqlarda aholi tegishli infratuzilma sub-loyihalarini amalga oshirish uchun mablag‘ oladigan mahalliy infratuzilmani rivojlantirish rejalarini tayyorlashni tugatgan. Masalan, loyihada nazarda tutilgan qishloqlarda ichimlik suvi, gaz va elektr ta‘minoti tizimlari, ichki yo‘llar, maktablar va boshqa asosiy infratuzilma va xizmatlarni modernizatsiya qilish yoki qurish uchun.

Saroy qishlog‘i aholisi mahalliy maktabni qayta tiklash uchun ovoz berdi. U bir necha o‘n yillar oldin qurilgan va eskirganligi sababli uzoq vaqt davomida jamoat binolariga qo‘yiladigan me‘yorlar va standartlarga javob bermagan.

Uchrashuv davomida Byerde xonimga mahalliy aholining kichik loyihani ishlab chiqish va amalga oshirilishini nazorat qilish tajribasi taqdim etildi, buning natijasida maktab qayta qurilib, uning maydoni kengaytirildi. Hozir bu yerda nafaqat Saroydan, balki qo‘shni qishloqlardan keladigan ko‘p o‘quvchilar ham tahsil olmoqda. Shuningdek, maktab o‘quv jarayoni uchun sharoit yaratish maqsadida barcha zarur jihozlar bilan ta‘minlandi.

Hozirgi kunda Jahon bankining O‘zbekistondagi dasturi uning Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik uchta operatsiyalaridan biri hisoblanadi. 2022-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, u hukumat tomonidan bankning moliyaviy yordami bilan amalga oshirilayotgan 27 ta loyihadan iborat bo‘lib, ularning umumiy qiymati 4,76 milliard dollarni tashkil etadi.

Ushbu loyihalar makroiqtisodiy islohotlar va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, suv resurslarini boshqarish, suv ta‘minoti va sug‘orish xizmatlarini takomillashtirish, shahar va qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, energetika, transport, sog‘liqni saqlash tizimlari, ta‘lim, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, innovatsiyalar, soliq ma‘muriyati, statistika, moliya va boshqa sohalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shuningdek, COVID-19 pandemiyasining sog‘liqni saqlash, aholi farovonligi va iqtisodiyotga ta‘sirini yumshatishga, hamda iqlim o‘zgarishi ta‘siriga chidamliligini oshirishga yordam bermoqda.